

**ASHTARXONIYLAR SULOLASI VAKILLARINING DAVLAT
BOSHQARUV FAOLIYATIDAGI ASOSIY JIHLTLARI.
ASHTARXONIYLAR DAVLATI TARIXINING YORITILISHI VA
TARIXSHUNOSLIK MASALALARI.**

Murotova Muxlisa Yorqin qizi

Buxoro davlat Pedagogika instituti 1-TAR 23 guruh talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Buxoro taxtida hukmronlik qilgan Ashtarxoniylar sulolasining butun ijtimoiy,iqtisodiy, madaniy, siyosiy hayoti, hukmdorlarning davlat boshqaruv faoliyatidagi asosiy jihatlari, Ashtarxoniylar davlati tarixining O'zbek davlatchiligi tarixida tutgan o'rni, aynan shu sulola hukmronligi davridagi Movorounnahrning hayoti, hukmdorlarning savdo va diplomatik munosabatlari hamda ularning davlat hayotidagi muhim islohotlari haqida, shuningdek Ashtarxoniylardan bo'lgan Imomqulixonning hayoti va faoliyati, uning Buxoro tarixida tutgan asosiy o'rni va roli haqida hikoya qiladi.

Kalit so'zlar: Astraxan, To'qay-Temur, mo'g'ullar, Jo'ji, Oltin O'rda, Majmua as-salotin, Richard Frye, Vladimir Bartold, Toshkent qirg'ini, Nodir devonbegi, Muin Musavvir, qozoqlar, qalmiqlar, kenagas, Volga.

Ashtarxoniylar davlati tarixini yoritish ekanmiz, eng avvalo sulolaning ibtidosidan ya'ni eng tarixiy davridan boshlasak. Ashtarxoniylar davrining ilk yillari haqida ma'lumot beruvchi manbalar orasida Buxoro va Hindiston o'rtasidagi savdo yo'llarini tasvirlagan arab va fors sayyohlari asarlari ham muhim ahamiyatga egadir.

Ashtarxoniy atamasi ilk marotaba Xo'jamqulibek Balxiyning „Tarixi Qipchoqxoniya“ asarlarida uchraydi. Unga qadar, ya'ni 1720-yillarga qadar bu nisba yoki qo'llanilmagan, yoki ikkinchi darajali bo'lgan deya taxmin qilinadi¹.

Ashtarxoniylar sulolasining eng qadimgi tarixi ularning kelib chiqishi bilan bog'liq bo'lib, bu sulola Movorounnahrda hukmronlik qilishidan oldin Volga bo'yidagi Ashtarxon ya'ni hozirgi Astraxan viloyatidan kelib chiqqan. Ashtarxoniylar sulolasi nasabining tarmog'i Chingizxonga yetadi va Jo'jixonning 13-o'g'li To'qay Temurga borib taqaladi. Jo'jixonning katta o'g'li Botuxon To'qay Temurga 14 ulusni, aniqrog'i, Mang'ishloq, Hoji Tarxon va Shimoliy Kavkazdagi aslar yerini mulk qilib bergan².

Demak, aytishimiz mumkinki, Ashtarxoniylar o'zlarining nasabini Chingizxonning to'ng'ich o'g'li Jo'jixonning o'g'li To'qay-Temurga bog'laydi, shu

¹ Алексеев А. К. Политическая история Тукай-Тимуридов: По материалам персидского исторического сочинения Бахр ул-асрар. СПб: Изд-во С.-Петербур. ун-та, 2006 — 229-бет. ISBN 5-288-03987-9.

² Zamonov A. Buxoro xonligining Ashtarxoniy hukmdorlari: monografiya. Toshkent: Bayoz, 2021 — 136-бет. ISBN 978-9943-6372-1-4.

sababli ham ularni “To‘qay-Temuriya” deb ham atashadi. Keyingi davr tarixiy manbalarida sulolaning nomi To‘qay-Temuriy (xonadoni To‘qay-Temuriyon) va sulola vakillari xon o‘g‘illari (xon o‘g‘li) deb nomlanishgan³.

Ular Mo‘g‘ullar imperiyasi tarkibidagi Jo‘ji ulusining bir qismini tashkil qilgan. Demak, Ashtarxoniylar ya‘ni To‘qay-Temuriylar asli mo‘g‘ullar sulolasidan bo‘lib, ularning ajdodlari Oltin O‘rda xonligida hukmronlik qilgan. To‘qay-Temuriylar Oltin O‘rda parchalangandan keyin Volga bo‘yida Astraxan xonligini boshqarganlar. Aynan manashu Astraxan yoki Ashtarxon shahri ularga nom bergan va ular o‘z sulolasini shahar nomiga ko‘ra “Ashtarxoniylar” deb atay boshlaganlar. Ashtarxon xonligidagi ichki ziddiyatlar va No‘g‘ay o‘rdadagi hokimiyat uchun kurashlar Mang‘ishloqxon boshchiligida To‘qay-Temuriylar xonadonining bir tarmog‘ini Turonga ko‘chib borishga undagan⁴.

XVI asr oxirlariga kelib, Buxorodagi Shayboniylar sulolasining ichki ziddiyatlari va zaiflashuvi natijasida Buxoroda siyosiy beqarorlik paydo bo‘lgan. Shayboniy hukmdorlari o‘rtasidagi toj-u taxt uchun kurashlar xonlikni zaiflashtirib, yangi kuchlarning sahnaga chiqishiga sabab bo‘ladi. Ashtarxoniylar Movorounnahrda qadam qo‘yganlarida ularga qarshi jiddiy raqib ham yo‘q edi hatto.

Ashtarxoniylar yoki To‘qay-Timuriya sulolasi XVI asrning oxiri va XVII asr o‘rtalarida Movorounnahrda hukmronlik qilgan sulola hisoblanadi desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Yuqoridagi ushbu ma‘lumotlar sulola tarixining yoritilishi haqida edi. Endi Ashtarxoniylar davlatining manbashunosligiga to‘xtaladigan bo‘lsak, Xusususan, Muhammad Yusuf Munshiyning “Tazkirayi Muqimxoniy” asari shular jumlasidandir. Bu asar XVII asr oxiri va XVIII asr boshidagi Buxoro xonligining siyosiy hayoti va Ashtarxoniylar sulolasi hukmronligi haqida muhim tarixiy ma‘lumotlarni o‘z ichiga oladi. Bundan tashqari, Abdulloh Hofiz Tanish Al-Buxoriyning “Sharafnomayi Shohiy” asari- Shayboniylar sulolasining tugashi va Ashtarxoniylarning taxtga kelish jarayonini tasvirlaydi. U davrdagi siyosiy voqealar haqida qimmatli ma‘lumotlar beradi. Yana aytishimiz mumkinki, Xo‘ja Muhammad Salim bin Abdulmo‘minning “Majmua as-salotin” asari ham alohida o‘ringa ega. Bu asar Ashtarxoniylar sulolasining birinchi hukmdorlari haqida muhim faktlarni o‘z ichiga oladi.

Ashtarxoniylarning dastlabki hukmdorlari Boqi Muhammad uning ukasi Vali Muhammad va Imomqulixon bo‘ldi. Ular o‘z sulolasining ta‘sirini mustahkamlash uchun ichi siyosatni kuchaytirib, Buxoro xonligini yanada rivojlantirishga harakat qildilar. Ular tashqi siyosatda ham boshqa davlatlar bilan savdo va diplomatik

³ Султанов Т. И. Чингиз-хан и Чингизиды. Судьба и власть. Москва: Аст, 2006 — 445-бет.

⁴ Алексеев А. К. Политическая история Тукай-Тимуридов: По материалам персидского исторического сочинения Бахр ул-асрар. СПб: Изд-во С.-Петербур. ун-та, 2006 — 229-бет. ISBN 5-288-03987-9.

munosabatlarni yaxshigina yo'lg'a qo'yishadi. Ashtarxoniylarning dastlabki davrida davlatning boshqaruv tizimida muhim islohotlar olib borildi, masalan, diniy ulamolar va qozilar davlat boshqaruvida muhim rol o'ynaydigan bo'lishadi. Bundan tashqari sulola namoyondalari Buxorodagi qadimiy islomiy me'morchilik va madaniyatni rivojlantirishni davom ettirdilar. Shuningdek ular savdo yo'llarini nazorat qilishga va xalqaro aloqalarni har doimgidanda ko'p kengaytirishga e'tibor qaratishadi. Ashtarxoniylar davrida Buxoro xonligi Markaziy Osiyoning yirik siyosiy markazlaridan biriga aylandi. Sulola vakillari ichki tartibni saqlash va o'z hududlarini himoya qilishga katta e'tibor qaratganlar. Ularning davrida islom dini va madaniyatini rivojlantirish, ilm-fan va adabiyotni qo'llab-quvvatlash, shuningdek, savdo-sotiqni kengaytirish maqsadida bir qator islohotlar ham amalga oshirilgan.

Endi Imomqulixon davriga to'xtaladigan bo'lsak, Imomqulixon (1611–1642) - Buxoro xonligining taniqli hukmdori bo'lgan. Uning hukmronligi davrida Buxoro xonligi yirik madaniy va ilmiy markazga aylangan. Imomqulixon to'g'risida chet ellik olimlar tomonidan bir qancha tadqiqotlar amalga oshirilgan.

Masalan, Vladimir Bartold kabi tarixchilar Imomqulixon davridagi markaziy Osiyoning siyosiy ahvoli va madaniy hayotiga katta e'tibor bergan. U Imomqulixon davrini nisbiy barqarorlik va Buxoro xonligining kuchayishi davri deb hisoblaydi. Bartold Buxoroning turli diniy va ilmiy an'alariga oid materiallarni o'rganib, ushbu davrning intellektual hayotiga alohida e'tibor qaratgan. Yevropalik tarixchilar va sharqshunoslar ham Imomqulixon davridagi siyosiy voqealar va diplomatik aloqalar haqida tadqiqotlar olib borgan. Ulardan biri Richard Frye bo'lib, u Buxoro xonligining xalqaro savdo va diplomatiyasiga oid masalalarni o'rgangan. Frye Imomqulixonning iqtisodiy siyosati va tashqi savdo bilan shug'ullanishi orqali Buxoro xonligi obro'sini oshirganligini ta'kidlaydi. Ba'zi turk tarixchilari Imomqulixonni turkiy madaniyat va tarixning muhim figuralaridan biri sifatida ko'rib, uning Turkistonning siyosiy tarixidagi o'rnini o'rganishgan. Ularning fikriga ko'ra, Imomqulixon Turkistonning siyosiy mustaqilligini mustahkamlashga xizmat qilgan.

Imomqulixon 1613-yil Toshkentni egallab, o'g'li Iskandarni hokim etib tayinlagan. Ammo, shahar aholisi uning nojo'ya xatti-harakatlaridan norozi bo'lib isyon ko'tarib Iskandarni o'ldirgan. Bundan g'azablangan Imomqulixon Buxoro, Balx va Badaxshon viloyatlaridan qo'shin yig'ib kelib, Toshkent aholisini qirg'in qilgan (Toshkent qirg'ini). Buxoro xonligida ichki nizolar juda kuchli bo'lgan. Toshkent, Balx, Samarqand viloyatlari ochiqdan-ochiq markaziy hokimiyatga qarsh siyosat yurgizishardi. Imomqulixon bu kurashlarga barham bergan. U darveshlarni qo'llab quvvatlagan, atrofiga olimlar va shoirlarni to'plagan, o'zi ham she'rlar yozgan. O'sha zamon manbalarining birida shunday yozilgan „ Imomqulixon nochorlar ishini yengillashtirdi, arz bilan kelganlarni qaytarmadi, uning zamonida na kambag'al va na bechora qolmagandi. Chiqargan buyruqlari ijrosi borasida

amaldorlariga qattiq turdi, qorong‘u tushishi bilan oddiy kiyim kiyib, vaziri va qo‘rchi bilan bozorlaru- mahallalarni aylanib oddiy xalqning haqiqiy turmush ahvolidan bohabar bo‘lib turardi. Buni xalq bilgani uchun ham Imomqulixon hukmronligi yillari mamlakatda biron marta ham isyon ko‘tarilmagan”. Ko‘chmanchilar bilan olib borilgan muvaffaqiyatli janglar natijasida u 30 yildan ortiq hukmronlik qilgan. Imomqo‘li hukmronligi davrida Tilla-qori masjid majmuasi, Samarqanddagi Sherdor madrassasi, Buxorodagi Nodir-Devon-begi madrasasi va boshqa ko‘plab mashhur nodir me‘moriy binolar barpo etilgan. Imomqulixon hukmronligida Ashtarxoniylar davlati barpo etilgan vaqtidan buyon eng yuqori cho‘qqisiga erishgan. Imomqulixonning tog‘asi o‘zbeklar naslidan bo‘lgan Nodir devonbegi ham mamlakatda juda katta hurmatga ega bo‘lgan. U davlat moliya ishlari vaziri bo‘lishiga qaramay, ilm-fan va san‘at homiysi o‘rnida ko‘proq tanilgan. U o‘z mablag‘iga Buxoro hamda Samarqandda madrasa qurdirgan.

Buxoroda Imomqulixon hukmronligining oqibati shu bo‘ldiki, uning davrida xon hokimiyati nisbatan mustahkamlandi. Nufuzli amirlar va zodagonlar ham xon hokimiyatiga nisbatan dushmanlik munosabatlarini to‘xtatib turishga majbur bo‘ldilar. Biroq, shunga qaramay, Imomqulixon mamlakatdagi siyosiy tarqoqlikning oldini ololmadi. Imomqulixon hayotining so‘nggi yillari ko‘z nuridan qoladi va 1642-yil o‘z ukasi Nodir Muhammadxon (1642-1645) foydasiga taxtdan voz kechib, haj safariga otlanadi. Nodir devonbegi Imomqulixonni sayohatda kuzatib borgan. Imomqulixon Erondagi safaviy shohi saroyida mehmon bo‘ladi, mahalliy rassom Muin Musavvir uning suratini chizadi.

Imomqulixon 1644- yil Makkada vafot etgan va Madinaga dafn etilgan. Ba‘zi manbalarga ko‘ra, xonning janozasida 600 ming nafar ziyoratchi ishtirok etgan.

Ashtarxoniylar sulolasi (1601-1756)

Boqi Muhammad 1601 - 1605

Vali Muhammad 1605 - 1611

Imomqulixon 1611 - 1642

Nadr Muhammadxon 1642 - 1645

Abdulazizxon 1645 - 1681

Subhonquli 1681 - 1702

Ubaydullaxon II 1702 - 1711

Abulfayzxon 1711 - 1747

Abdulmo‘minxon 1747 - 1751

Ubaydulloxon III 1751 - 1754

Sherg‘ozixon 1754 - 1756

Xulosa qilib aytganda,Ashtarxoniylar davri ya‘ni 1601-1756-yillar Movorounnahrda o‘zaro siyosiy nizolar avj olishi,markaziy hokimiyatning zaiflashib borishi bilan xarakterlansada,iqtisodiy hayotda madaniyatning ba‘zi sohalari xususan,me‘morchilik,adabiyot,tarixnavislik kabi sohalarda ijobiy siljishlar ham

ko'zga tashlanadi. Ashtarxoniylar davri Movarounnahr va Xuroson tarixida muhim o'rin tutadi. Bu davrda markazlashgan davlat tizimi zaiflashgan bo'lsa-da, hududlar orasidagi savdo-sotiq va madaniy aloqalar davom etgan, ilm-fan va san'at rivojlanishida sezilarli iz qoldirilgan. Ashtarxoniylar hukmronligi ichki ziddiyatlar va tashqi bosimlar bilan kechgan bo'lsa ham, ular o'z davrining siyosiy-harbiy vaziyatiga moslashgan, qo'shni davlatlar bilan diplomatik aloqalarni rivojlantirgan va madaniy merosni boyitishga hissa qo'shgan. Ushbu davrning tarixiy ahamiyati, ayniqsa, o'zbek davlatchiligi rivojida iz qoldirgani bilan e'tiborga molikdir. Ashtarxoniylar davri o'zaro ta'sir, integratsiya va ijtimoiy o'zgarishlar jarayoni sifatida tarixda mustahkam iz qoldirdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Vohidov Sh., Xoliqova R. Markaziy Osiyodagi davlat boshqaruvi tarixidan. Toshkent, Yangi asr avlodi. 2016.
2. Muqimov Z. Shayboniylar davlati va huquqi. Toshkent, Adolat. 2007.
3. Anatoliy Sagdullayev "O'zbekiston tarixi Davlatchiligi", 175-190-betlar.
4. Azamat Ziyov "O'zbekiston tarixi" 260-265-betlar.
5. Jumanazar A. K. Buxoro ta'lim tizimi tarixi. Toshkent: Akademnashr, 2017 — 592-bet. ISBN 978-9943-4728-2-2.